3. Uchinchi yondashuvda turizmni davlat tomonidan tartibga solinishi ko'p funksional vazirliklar zimmasiga yuklanadi. Masalan, Fransiya Iqtisodiy siyosat vazirligi, Germaniyada Iqtisodiyot vazirligi, Rossiyada Iqtisodiy rivojlanish va savdo vazirligi va boshqalar.

Mazkur vazirliklar turizmni hududlarda rivojlantirishning tashkiliy bo‘limlari, huquqiy-me’yoriy asoslari, milliy turistik mahsulotlarning targ‘iboti va xaridi bilan shug‘ullanadi. Mamlakat turistik mahsulotlarini chet ellarda faol targ‘ib qilish orqali turistlar oqimini jalb qilishni Buyuk Britaniya tajribasida ham yaqqol kuzatish mumkin. 1969-yilda tashkil qilingan Buyuk Britaniya Turizmni rivojlantirish boshqarmasining ham eng asosiy vazifasi Britaniya turistik mahsulotlarini xorij mamlakatlarida reklama qilish hisoblanadi. Boshqarma tomonidan matbuot, radio, televideniye va internet orqali turistik mahsulotlar reklamasi, xalqaro turizm bo‘yicha marketing va maslahatlar taqdim etib boriladi. Shuningdek, xorij mamlakatlarida xalqaro konferensiyalar va yarmarkalar tashkil qilinadi. Tashkilotda jami 300 nafar xodim ishlasa, shundan 30 foizi London va mintaqaviy markazlarda faoliyat olib boradi. Qolgan qismi esa chet elda mamlakat turistik mahsulotlarini reklama qilish va sotish bilan shug‘ullanadi.

Mamlakatlar yalpi ichki mahsulotida turizm va xizmatlar ulushini oshirish, turizmda aholi bandligini ta’minlash, shahar va qishloqlar infratuzilmasini turizmga moslashtirish borasida qator xalqaro tajribalar amalga oshirilgan. Ana shulardan biri Kanada tajribasidir.

Mazkur tajribada hududning raqobatdoshligi mutanosiblashtirilgan strategiyani amalga oshirish orqali yaratiladi. Bunda aniq shaharlarning raqobatdoshligini oshirishga urg‘u beriladi. Shaharlar o‘z atrofidagi hududlar uchun o‘ziga xos “o‘sish qutblari” sifatida qaraladi.Fikrimiz dalili sifatida, hududning uzoq muddatli raqobatdoshligini samarali va muvaffaqiyatli strategiyasi sifatida Ottava shahrining uzoq muddatli iqtisodiy strategiyasini keltirish mumkin. Beshinchi strategik yo‘nalish sifatida Ottava va uning atrofidagi hududlarni rekreatsion va ishbilarmonlik turizmining markazlari sifatida xalqaro bozor tomon harakati, provinsiyalar uchun ma’lum imijning yaratilishiga, iqtisodiy strategiyalarni taraqqiyotning boshqa strategiyalari (“Ijtimoiy soha rejasi”, “San’at va tarixiy meros” rejasi, “Shahar qurilishi” rejasi va “Atrof-muhit rejalari”) bilan “bog‘lash”ga e’tibor berildi.

T.M. Axmedov, A.M. Sodiqov, Sh. Nazarov va boshqa olimlarning ilmiy ishlarida xorijiy mamlakatlarda mintaqalar rivojlanishini tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlari atroflicha o‘rganilgan.

O‘zbekiston va xorijiy mamlakatlarda mintaqalarning rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlaridan foydalanishni nisbiy baholash A.M.Sodiqovning ilmiy ishlarida turizmni rivojlantirish strategiyasining ustuvor yo‘nalishlari Finlandiya, Turkiya va Kanada mamlakatlari misolida ko‘rsatib berilgan.

## METODLAR

Maqolada turizmni rivojlantirish bo‘yicha xorijiy davlatlarning ilg‘or tajribalari o‘rganildi. Turizm bo‘yicha rasmiy statistik ma’lumotlardan foydalanildi. Tatqiqotda nazariy mushohada, tizimli yondashuv, kuzatish, umumlashtirish, qiyosiy tahlil, sintez kabi usullar qo‘llanildi.

## NATIJALAR

Rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida turizm beqiyos ahamiyatga ega. Ularning tabiiy sharoiti, iqlimi, rekreatsiya resurslari, tarixiy va iqtisodiy xususiyatlari turizm sohasini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi.

Rossiya, Turkiya, Xitoy, Yaponiya kabi davlatlar tajribasidan kelib chiqib salohiyatli hududlarda turizmni tashkil qilish, uning boshqaruv usullarini soddalashtirish, soha rivojlanishiga salbiy ta’sir qiluvchi omillarni o‘rganish va bartaraf qilish, “o‘sish qutblari”ni aniqlash, faol investitsiya siyosatini olib borish soha rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Bu mamlakatlar tajribasida hududlarda yangi zamonaviy texnologiyalar va ilg‘or tajribalarni qo‘llash, malakali mutaxassislar tayyorlashga alohida e’tibor qaratilgan. Shunday xalqaro tajribalar mamlakatimizda ham keng tatbiq qilinmoqda.

1-jadval: Xorij davlatlarida turizmni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqishning o‘ziga xos xususiyatlari

| Strategiyani ishlab chiqish prinsiplari | Finlyandiya | Turkiya | Канада |
|---|---|---|---|
| Barqaror rivojlanish konsepsiyasini hisobga olish | Yangi texnologiyalar, muqobil energiya manbalaridan, ekologik toza transportdan foydalangan turizm subyektlariga subvensiya ajratish | Turizmni rivojlantirishda barqaror rivojlanishga asoslangan chora-tadbirlarni qo‘llash, mintaqalarni kompleks rivojlanishini ta’minlash, bandlik muammosini hal qilish | Turizmni rivojlantirishda barqaror rivojlanish konsepsiyasini qo‘llash |
| Innovatsiyani amalga oshirish | Ekoturizmni rivojlantirish | | Shimoliy mintaqalarda ekoturizmni rivojlantirish |



TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Turistlar uchun navigatsiya va yo'nalishni ko'rsatuvchi ma'lumotlar tizimining xalqaro namunalarini tanlashda MDH hamda Yevropa Ittifoqi mamlakatlarining xalqaro tajribalarini o'rganishga ahamiyat berilgan. O'zbekiston Markaziy Osiyoda kuchli tranzit salohiyatiga ega transport koridori vazifasini bajaruvchi mamlakatdir. Qo'shni mamlakatlarni o'zaro turistik aloqalarini amalga oshirishda transport xizmatlarini ko'rsatish orqali ham mamlakat qo'shimcha imkoniyatlarga ega bo'lishi mumkin. Mamlakat ichida turistik markazlar va obyektlarga olib boruvchi xalqaro, respublika va mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan yo'llarning sifati, turistik belgilar hamda infratuzilmani xalqaro standartlarga mos kelishi ham turistlar oqimining ortishiga sabab bo'ladi.

Sobiq Ittifoq mamlakatlari ichida dastavval Gruziya, Ozarbayjon va Armaniston turizm sohasini rivojlantirishga alohida e'tibor berdi. Hozirgi kunda Gruziya nafaqat MDH, balki jahon turizmida ham yetakchi davlatlar qatoriga qo'shilmoqda. Gruziyaga 2018 yilda 8,8 million sayyoh tashrif buyurdi. Hududining kichikligi, relefining 70 foizga yaqin qismi tog'liklardan iboratligi, aholi sonining kamligiga qaramasdan Gruziya sargu-zasht, tarixiy-madaniy, gastronomik, tog' turizmi va ekologik turizm turlarini rivojlantirdi. Bu mamlakatga tashrif buyurayotgan sayyohlarning 73 foizi Ozarbayjon, Rossiya, Armaniston, Turkiya kabi mintaqadagi qo'shni davlatlarga to'g'ri keladi.

Mamlakatda turizmni rivojlantirish, eng avvalo, ichki turizm va qo'shni mamlakatlardan sayyohlar oqimini jalb qilishdan boshlanadi.

Bu borada Yevropa mintaqasi tajribasini andoza qilib olish maqsadga muvofiq. Jahon bo'yicha eng ko'p turistlar aylanmasi Yevropa mintaqasiga to'g'ri keladi. Yevropaga eng ko'p tashrif buyuradigan sayyohlar aynan Yevropa xalqlarining o'zlaridir. Ushbu xalqaro tajribadan kelib chiqqan holda Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida yagona "erkin turistik zona"ni shakllantirish mintaqaning har bir davlati uchun manfaat keltiradi. So'nggi yillarda bu borada hukumatimiz tomonidan qator samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Yevropa mamlakatlari uchun yagona bo'lgan Shengen vizasi kabi Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun ham "Silk visa"ni tatbiq qilinishi, bojxona faoliyatining soddalashtirilishi, aeroport va vogzallarda yashil yo'laklarni tashkil qilinishi, ortiqcha qog'ozbozlik va navbat kutishlarni oldini olish kabi yengilliklar xorijlik va mahalliy turistlar uchun yaratilmoqda.

"Markaziy Osiyo mintaqaviy iqtisodiy hamkorlik"(MOMIH) dasturi doirasida mamlakatlarda barqaror turizmni rivojlantirish borasida xalqaro aloqalar rejalashtirilmoqda. "Markaziy Osiyo mintaqaviy iqtisodiy hamkorlik" dasturiga 11 ta mamlakat – Afg'oniston, Ozarbayjon, Xitoy, Gruziya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Mo'g'uliston, Pokiston, Tojikiston, Turkmaniston va O'zbekiston a'zo hisoblanadi. Bu mintaqada hamkor davlatlar ishtirokida turizmni barqaror rivojlantirish, kombinatsiyalangan turizm loyihalarini amalga oshirish bo'yicha kelishuvlar amalga oshirilmoqda. Markaziy Osiyo mintaqasi xalqi o'zaro diniy qadamjolarni ziyorat qilish, qarindosh-urug'chilik munosabatlari hamda do'stu birodarlarni ko'rish maqsadida ham safarlarni amalga oshiradi.

"Mintaqaning turizm jozibadorligini oshirish maqsadida transport kommunikatsiyalari va infratuzilmasini birgalikda rivojlantirish zarur. Butunjahon turizm tashkiloti bilan birgalikda Markaziy Osiyoda turizm xablarini rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish ayni shu maqsadga xizmat qilgan bo'lar edi". 2018-yilda 17 yillik tanaffusdan keyin Toshkent-Almati, Toshkent-Chimkent, Samarqand-Nursultan yo'nalishidagi avtobuslar qatnovini yo'lga qo'yilishi, 2019-yilda "Andijon-O'sh" shaharlari o'rtasidagi muntazam qatnovlarni amalga oshirilishi, ziyorat turizmini mintaqada yanada rivojlanishiga turtki beradi. Shuningdek, mamlakat ichki transport tizimidagi o'zgarishlar ham bir muncha mahalliy turizmni rivojlanishiga ta'sir ko'rsatdi. Xorijiy investitsiyalar hamda tadbirkorlik subyektlarini jalb qilgan holda tarixiy shaharlarni o'zaro bog'lovchi avtomobil yo'llarining holatini yaxshilash, "Toshkent-Samarqand-Buxoro-Xiva-Nukus", "Toshkent-Guliston-Jizzax-Samarqand-Qarshi- Termiz", "Qo'qon-Farg'ona-Andijon-Namangan" yo'nalishlarida avtobus qatnovini yo'lga qo'yish bo'yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Mamlakatda turizmni rivojlantirishda Rossiya tajribasini ham alohida ta'kidlab o'tish zarur. 1967-yilda Yuriy Bichkov tomonidan Moskva atrofidagi 8 ta (Sergiyev Posad-Pereslavl-Zalesskiy-Rostov Velikiy-Yaroslavl-Kostroma-Ivanovo-Suzdal-Vladimir) diqqatga sazovor shaharlar ro'yxati marshrut tarkibiga kiritildi. Shunday qilib "Oltin halqa" nomi ostida mashhur turistik brend shakllandi. Bu xalqani umumiy uzunligi 876 km ni tashkil qilib, hozirgi kunda marshrut tarkibiga Ples va Palex shaharlari ham kiritilgan. Shuningdek, "Oltin xalqa" marshruti davomida sayyohlar 16 ta mashhur monastirlarni ziyorat qilishlari mumkin.

O'zbekiston viloyatlarining geografik joylashuvi nuqtayi nazaridan olib qaralsa, Farg'ona vodiysi shaharlarida bu tajribani rivojlantirish ijobiy natija beradi. Yuqoridagi kabi "Oltin xalqa" tajribasini diniy ziyoratgohlar misolida "Yetti pir ziyorati" yo'nalishi bo'yicha Buxoro viloyatida yanada rivojlantirish maqsadga muvofiqdir. Bugungi kunda bu yo'nalish bo'yicha mamlakatimizda nafaqat mahalliy turistlar, balki Indoneziya, Malayziya, Saudiya Arabistoni, Eron, Turkiya, Hindiston hamda qo'shni respublikalardan ziyoratchilar tashrifi ortib bormoqda.

Markaziy Osiyo xalqlarini mintaqa bo'ylab sayyohlik maqsadida faol harakatlanishi uchun, eng avvalo, yuqorida ta'kidlanganidek viza, bojxona va transport sohalarida imkoniyatlarni yaratib berilishi dastlabki qadamlar hisoblanadi. Shuningdek, mamlakatlar aholisini mintaqaning turistik salohiyati bilan yaqindan tanisht-

irish uchun infoturlarni tashkil qilish yanada katta samara beradi. Bugungi kunda yurtimizda 8208 ta madaniy meros obyektlari mavjud bo‘lib, shulardan bor yo‘g‘i 500 tasi turistik marshrutlar dasturiga kiritilgan. Yuqori darajada sayyohlik sanoati rivojlangan Xitoyga tashrif buyurayotgan turistlar oqimini jalb qilish uchun ham imkoniyatlar mavjud. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston kabi chegaradosh mamlakatlarda xorijlik sayyohlarning asosiy qismi yaqin qo‘shni mamlakatlar hissasiga to‘g‘ri keldi. Xususan, Malayziyada xorijiy turistlarning 74 foizi qo‘shni mamlakatlar fuqarolaridir, Xitoyda ushbu ko‘rsatkich 72 foizni va Fransiyada 65,5 foizni tashkil qiladi.

Statistika ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekistonga xorijdan 2020-yil yanvar-dekabr oylarida turistik maqsadlarda 1,5 million kishi tashrif buyurgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich 2019-yilning shu davriga nisbatan -77,7 foizga kamaygan. 2019-yil davomida O‘zbekistonga 6 748 512 nafar sayyoh tashrif buyurgan, 2018 yilda esa bu ko‘rsatkich 5 346 219 kishini tashkil qilgan.




1-rasm: 2016-2020-yillarda O‘zbekistonga xorijiy davlatlardan tashrif buyurgan turistlar haqida ma’lumot (mln. kishi)

Chet elliklarning eng katta oqimi quyidagi davlatlardan qayd etildi: Qirg‘iziston- 508 ming kishi (barcha kelganlarning umumiy sonidan 33,8%), Qozog‘iston-424,1 ming kishi (28,2 foiz), Tojikiston-337,5 ming kishi (22,4 foiz), Rossiya-81,6 ming kishi (5,4 foiz), Turkmaniston-60,6 ming kishi (4 foiz), Ozarbayjon-2,2 ming kishi (0,1 foiz) va Belorusiya-1,6 ming kishi (0,1 foiz)ni tashkil qilgan. O‘zbekistonga tashrif buyurgan chet el fuqarolarining 87,8 foizi qarindoshlarini ziyorat qilish, 8,6 foizi-sayohat, 1 foizi-davolanish, 1,2 foizi-xizmat safari, 1,1 foizi-tijorat va 0,3 foizi kishilar o‘qish maqsadlaridagi safarlarni amalga oshirganlar.

Xitoy xorijlik sayyohlarning tashrifi bo‘yicha (2019-yilda 4-o‘rin 60.7 mln. kishi) jahon reytingida yetakchi mamlakatlar beshtaligiga kiradi [28]. Xitoy 1980-yillardan boshlab mamlakatga turistlar oqimini ko‘paytirish maqsadida “Ochiq eshiklar” siyosatini yurita boshladi. Bu mamlakat tajribasida ichki turizmni rivojlantirishga ham alohida e’tibor beriladi. Xitoyda yiliga uch marta fuqarolarning mamlakat bo‘ylab sayohat qilishi uchun “Oltin hafta” deb nomlangan imtiyozli ta’til kunlari tashkil qilinadi. Milliy bayramlar arafasida mehmonxona va turistik markazlar mahalliy sayyohlar bilan to‘ladi. Xizmatlar narxini bu paytlarda keskin oshib ketmasligi uchun Xitoyda “Arzon narxlar” siyosati ham olib boriladi. Bu kabi yondashuv Yaponiya tajribasida ham keng foydalaniladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan “2018-yilda fuqarolarning rasmiy sanalarni nishonlash davrida to‘liq dam olishi uchun qo‘shimcha shart-sharoitlar yaratish va dam olish, bayram kunlaridan oqilona foydalanishi, shuningdek, ichki turizmni yanada rivojlantirish” maqsadida qabul qilgan Farmoni ham mamlakatda turizmni rivojlantirishda xalqaro tajribalardan samarali foydalanishdan dalolatdir. Aholiga bayramlar (Yangi yil, Navro‘z va Mustaqillik kuni) arafasida “Golden week” 3 va 5 kunlik qo‘shimcha dam olish kunlarini belgilanishi ichki turizm va faol dam olish yo‘nalishlarini rivojlantirish uchun eng muhim mexanizmlardan biri hisoblanadi. Bu sanalarda transport va mehmonxona xizmatlari uchun chegirmalar berilishi hamda narxlardagi imtiyozlar mamlakatimiz turizm sohasidagi xalqaro tajribalardan samarali foydalanilayotganidan darak beradi. Turistik markazlarda mahalliy va xorijlik sayyohlar sonini ko‘paytirish uchun birinchi navbatda turistik firmalar, transport korxonalari, joylashtirish vositalari va xizmat ko‘rsatish sohalari faoliyatini son va sifat jihatidan to‘g‘ri tashkil qilish zarur. Quyidagi jadvaldan ko‘rinib turibdiki, mamlakatda 2025-yilgacha turistik firmalar sonini 1450 taga ko‘paytirish, joylashtirish vositalarini ham 3050 taga yetkazish, ulardagi o‘rinlar sonini 128 mingtagacha oshirish orqali turizm xizmatlari eksportini ko‘paytirish rejalashtirilgan. So‘nggi yillarda bojxona va viza tizimida yaratilgan yangiliklar O‘zbekistonga tashrif buyuruvchi sayyohlar sonini yildan-yilga keskin ortishiga sabab bo‘lmoqda. Xususan, 86 ta davlat fuqarolariga vizasiz va 57 ta davlat fuqarolariga soddalashtirilgan viza rejimi joriy etilishi natijasida o‘tgan yili 2016-yilga nisbatan 3,3 barobar ko‘p demakdir. Mavsum davomida turistlar sig‘imining ortib borishi, turistik markazlardagi infratuzilma obyektlarini hali yetarlicha emasligi, turizm sohasini

qayta isloh etilishini taqozo etmoqda. Jadvalda keltirilgan ma'lumot shuni ko'rsatadiki, amalga oshirilgan ishlar natijasida rejalashtirilgan davrning so'nggi yilida O'zbekistonga 11 810 ming xorijlik sayyohlar tashrifi ko'zda tutilgan. Darhaqiqat, so'nggi yillarda turizm sohasini rivojlantirishga qaratilgan davlat dasturlari o'z samarasini bermoqda. Biroq Sovid-19-koronavirusining jahon iqtisodiyotiga ta'siri, o'z navbatida, xalqaro turizmni ham chetlab o'tmaydi. Shu sababli mamlakatga kelishi kutilayotgan xorijlik sayyohlar soni va turizm sohasidagi boshqa islohotlar 2020 va 2021-yillarda pastroq ko'rsatkichlarni berishi mumkin.

Xalqaro tajribalar shuni ko'rsatadiki, mamlakatda turizm sohasini rivojlantirishda iqtisodiy, ijtimoiy va infratuzilma obyektlarini barpo etish borasida davlat-xususiy sherikchilik mexanizmlarini qo'llab quvvatlash muhim omillardan biri hisoblanadi. Masalan, Portugaliyada davlat turistik obyektlarni barpo etish uchun tadbirkorlarga 10 yilgacha foizsiz kreditlar ajratadi. Ispaniyada esa davlat loyihaning 30 foizigacha qismini budjet mablag'lari hisobidan ta'minlashga yordam beradi. Malayziyada turistik faoliyat bilan shug'ullanuvchi korxonalar soliqlardan ozod qilinadi. Xuddi shunday Turkiya ham 1982-yildan boshlab turizmda davlat va xususiy sherikchilik munosabatlarini rivojlantirish orqali joylashtirish vositalari, turistik infratuzilma obyektlari sonini ko'paytirish hamda sifatini yaxshilashga erishdi. Natijada 2019-yilda mamlakatga 51 860 000 sayyoh tashrif buyurdi. Ular orqali mamlakat 34,52 mlrd. AQSH dollari miqdorida daromad olgan.

Xorijiy mamlakatlarning tajribalarini milliy xususiyatimizga mos holda namunaviy tartiblarini ishlab chiqish bo'yicha qator ishlar amalga oshirilmoqda. Davlat-xususiy sherikchilik shartlari asosida respublikaning har bir hududidagi turistlar ko'p tashrif buyuradigan joylar hamda sayyohlik marshrutlarida 50 tadan sanitariya-gigiyena shoxobchalarini tashkil etish va boshqa turistik infratuzilma obyektlarini barpo etuvchi kichik va o'rta biznes subyektlariga soliq va bojxona imtiyozlari berilmoqda.

Respublikada turistik zonalar infratuzilmasini rivojlantirish, sayyohlik markazlarida zamonaviy turistik maskanlarni barpo etishda xorijiy sarmoyalarni jalb qilish muhim ahamiyatga ega. Turizmni rivojlantirish borasida katta tajribaga ega bo'lgan xorijlik kompaniyalarni kichik turistik zonalarga qiziqtirish orqali xalqaro standartlarga javob beradigan majmualarga ega bo'lish mumkin.

2019-yilda ishga tushirilgan "Amirsoy" tog'-chang'i majmuasini ishga tushirishda Italiya, Germaniya, Avstriya, Argentina, Ispaniya va Daniya kabi davlatlardan yetakchi loyihachi kompaniyalar jalb etilgan. Ushbu maskanning faoliyati mehmonlar xavfsizligini ta'minlash va ularga qulay sharoit yaratish uchun yuqori sifatli asbob-uskunalar, jihozlar keltirilib o'rnatilgan. Loyihaning umumiy qiymati 100,0 mln. AQSH dollarini tashkil qiladi. Ushbu loyiha sohada katta tajribaga ega Andorraning "RGI Management" kompaniyasi tomonidan amalga oshirilgan.

Shunga o'xshash loyihalardan yana biri Turkiyaning "IDEALIST" kompaniyasidir. Bu kompaniya bilan hamkorlikda Yangiqo'rg'on tumanidagi Nanay sayyohlik zonasi, Zomin tumanidagi "Suffa" masjidi, Boysun tumanidagi Omonxona qishlog'ida manzilli loyihalar amalga oshirilmoqda. 2017-yilda "Turizm sohasida hamkorlik to'g'risida" gi O'zbekiston va Turkiya hukumatlararo imzolangan Bitimga asosan ikki davlat o'rtasida o'zaro tajribalar almashinilmoqda. Turkiyaning turizm sohasidagi 40 yilga yaqin tajribasi shuni ko'rsatadiki, hududlarni va sohalarni rivojlantirishda to'g'ri rejalashtirish hamda loyihalashtirish chora-tadbirlari muhim ahamiyatga ega.

Mamlakatimizning xilma-xil tabiati va boy tarixi mavzuli turistik zonalar va klasterlarni yaratishga imkon beradi. Shu orqali O'zbekistonda turizmning istiqbolli turlarini (ziyorat, ma'rifiy, ekologik, etnografik, gastronomik, sport, davolovchi-sog'lomlashtiruvchi, qishloq, sanoat, ishbilarmonlik va boshqalarni) rivojlantirish va muayyan hudud uchun yangi konsepsiyalarni ishlab chiqishga zamin yaratiladi.

## MUNOZARA

O'zbekiston hukumati tomonidan viloyatlar imkoniyatidan kelib chiqib mavzuli turizm mintaqalarini tashkil qilish bo'yicha 20 ta infratuzilma obyektlarini barpo etish, sohada faoliyat olib boruvchi tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash hamda imtiyozlar yaratish bo'yicha 90 ga yaqin me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Bu me'yoriy-huquqiy hujjatlar turistik faoliyat sohasiga oid bazani takomillashtirishga asos bo'ladi. Respublikamizda turizm sohasini rivojlantirish uchun, eng avvalo, xalqaro normalar va standartlarni joriy etish, turistlar hamda tadbirkorlik subyektlariga qulay shart-sharoitlar yaratib berish muhim ahamiyatga ega.

## XULOSA

Yuqorida ko'rsatilgan fikr-mulohazalardan kelib chiqqan holda quyidagicha xulosalarga kelish mumkin:

- mamlakatlarning tajribasidan xulosa qilgan holda turizm turlarini hududlarda diversifikatsiya qilish ko'proq samara beradi. Chekka qishloq joylar va tog'li hududlar xususiyatidan kelib chiqib agroturizm, ekoturizm, gastronomik turizm, tog' turizmi, ziyorat turizmi kabi sayyohlik turlarini rivojlantirish orqali mahalliy aholini tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilish mumkin;

- Turkiya, Bolgariya, Misr kabi rivojlanayotgan davlatlar tajribasidan kelib chiqib, mamlakatimizda turizmni tashkil etishni vakolatli davlat boshqaruv organlari orqali davlat-xususiy sherikchilik mexanizmlari asosida amalga oshirish maqsadga muvofiq;

- Rossiyaning "Oltin xalqa" tajribasidan keng foydalangan holda Farg'ona vodiysi shaharlarida bu tajribani rivojlantirish ijobiy natija beradi. Xitoy va Yaponiya mamlakatlari tajribasidagi "Oltin hafta" yoki "Arzon narxlar" deb nomlangan imtiyozli ta'til kunlarini O'zbekistonda ham keng joriy qilinishi ichki turizmni jadal rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 5-dekabrdagi "Chorvoq" Erkin turistik zonasini tashkil etish to'g'risida" gi PF-5273-son Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 28-dekabrdagi "2018-yilda rasmiy sanalarni nishonlash davrida qo'shimcha ishlanmaydigan kunlarni belgilash va dam olish kunlarini ko'chirish to'g'risida" gi PF-5290-son Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 13-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-5781-son Farmoni.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi PF-5611-son Farmoniga 1-ilova "2019-2025-yillarda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish" Konsepsiyasi.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 19-aydagi "2017-2019-yillarda Buxoro viloyati va Buxoro shahrining turizm salohiyatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-2980-son Qarori.
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 4-oktyabrdagi "Moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk obyektlari milliy ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida" gi №846-son Qarori.
7. Ashurmetova N.A. Qishloq xo'jaligida innovatsion texnologiyalarni iqtisodiy baholash tizimlarining tahlili // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 3, may-iyun, 2018-yil.
8. Каҳре S., Ҳоффманн Д., Аҳлеманн Ф., 2017. Беёнд бусинесс-ИТ alignment-digital business strategies as aparadigmatic shift: a review and research agenda. In: Rroceyedings of the 50th Hawaii International Sonference on System Sciences, pp. 4706-4715.
9. Винничек Л.Б. Инновационная деятельность в АПК: проблемы и перспективы // Материалы конференции "Российская экономика в условиях новых вызовов", 145-149, 2018.
10. Алтухов А.И. Инновационный путь развития сельского хозяйства как основа повышения его конкурентоспособности // Вестник ОрелГАУ 6'(08). Текст электронный. https://cyberleninka.ru/article/n/innovatsionnyy-put-razvitiya-selskogo-hozyaystva-kak-
11. Баутин В.М. Информационно-консультационная служба должна ориентироваться на инновации // Известия ТСХА, выпуск 2. Т.: 2012.
12. Аскланд P. Economic Analysis of the Digital Economy. Economic Record, 301(93), 2017, pp.334-336.
13. Гулямов С.С., Максудова Ш.Я. Стратегия внедрения цифровой экономики в совершенствование развития агропромкшленного комплекса до 2030 года – "Zamonaviy korporativ boshqaruv: muammo va yechimlar" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami – T.: 2020.
14. Rustamovich, Dehkonov Burhan. "Quality And Safety Of Rublic Satering Services In Uzbekistan". European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630)(2021/5/23): 19-23.
15. Dehqonov Burxon Rustamovich. "Ichki turizmni rivojlanlantirishda davlatning o'rni" yashil iqtisodiyot va taraqqiyot (ISSN: 2992-8982) 2023-yil, oktyabr. № 10-son.
16. Rustamovich D. B. Analysis of the Development of Tourism in Uzbekistan //Journal of International Business Research and Marketing. – 2020. – T. 5. – №. 6. – С. 28-33.
17. Очилова Хилола Фармоновна, Мухаммадсидик Амонбоев and Бурхон Рустамович Дехконов. "Развитие внутреннего туризма для восстановления отрасли после пандемии". Заметки ученого 12 (2020): 242-247.
18. Mahkamova M.A. Globallashuv jarayoni, innovatsiyalar va O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni shakllanishi. // "Sanoat iqtisodiyoti va menejmenti: muammo va yechimlar" mavzusidagi xalqaro onlayn ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. – T.: 2021.
19. www.review.uz.
20. www.agro.uz.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz

# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 2**

© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnalning ilmiyligi:

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.